

IQTISOD, MENEJMENT VA PUL

Ilmiy jurnal

ECONOMICS, MANAGEMENT AND MONEY

Scientific journal

IQTISOD, MENEJMENT VA PUL

Ilmiy jurnal

ECONOMICS, MANAGEMENT AND MONEY

Scientific journal

ISSN: 3060-5474




ORIENTAL
UNIVERSITETI



ORIENTAL
UNIVERSITETI

IQTISOD, MENEJMENT VA PUL

Ilmiy jurnal

ECONOMICS, MANAGEMENT AND MONEY

Scientific journal

(Uchinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2025-yil 11-iyuldagi 372/4-son qaroriga muvofiq iqtisod va menejment fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga "Iqtisod, menejment va pul" ilmiy jurnali kiritilgan.

Toshkent – 2025

IQTISOD, MENEJMENT VA PUL

Ilmiy jurnal

Bosh muharrir:

Olimjon Astanaqulov, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Murodjon Axmedov, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Mas‘ul muharrir:

Hayotjon Aminov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

“Iqtisod, menejment va pul” ilmiy jurnalining tahrir hay‘ati:

- | | |
|---------------------------|---------------------------------------------------------|
| 1. Saidaxror G‘ulomov | i.f.d., akademik – tahrir hay‘ati a‘zosi; |
| 2. Saidasror G‘ulomov | i.f.d., akademik – tahrir hay‘ati a‘zosi; |
| 3. Nurislom Tuxliev | i.f.d., akademik- tahrir hay‘ati a‘zosi; |
| 4. Muxammadi Alimardonov | i.f.d., professor – tahrir hay‘ati a‘zosi; |
| 5. Tulkin Rasulov | i.f.d., professor – tahrir hay‘ati a‘zosi |
| 6. Nargiza Mamanazarova | p.f.d., professor v.b. – tahrir hay‘ati a‘zosi |
| 7. Bobir Tursunov | i.f.d., (DSc), dotsent – tahrir hay‘ati a‘zosi |
| 8. Gulmira Azretbergenova | i.f.n., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay‘ati a‘zosi |
| 9. Zurab Garakanidze | i.f.n., professor (Gruziya) – tahrir hay‘ati a‘zosi |
| 10. Muhammad Iyd Balbaa | Ph.D., dotsent (Misr) – tahrir hay‘ati a‘zosi |
| 11. Samshul Amry | Ph.D. (Malayziya) – tahrir hay‘ati a‘zosi |
| 12. Aleksandr Gurnak | i.f.n., dotsent (Rossiya) – tahrir hay‘ati a‘zosi |

MUNDARIJA

Shernayev Akbar Aqmirzayevich

Soliq siyosati va raqamli transformatsiyaning kichik biznesga ta'siri 4

Sanakulova Barnogul Rizakulovna, Berdieva Dilfuza Akhatovna

Zamonaviy uy-joy fondini samarali boshqarishga ta'sir qiluvchi omillarning ekonometrik modellashtirish orqali tahlili 12

Akhmedov Murodjon Ubaydullayevich

Umumiy o'rta ta'lim sifatini boshqarish jarayonlarini takomillashtirish masalalari28

Yusupov Muxiddin Soatovich

Agrar sektorda "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish imkoniyatlari 40

Mardonov Baxodir Baxronovich

Yangi ta'lim tizimini rivojlantirish muammolari va istiqbollari 55

Safarov Alisher Yunusaliyevich

Televizion reklamalarning mahsulot brendini shakllantirishdagi roli 66

Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li

Aksiyadorlik jamiyatlari da auditorlik tekshiruvini amalga oshirishda analitik ishlov berishni tashkil etish 75

Djumaev Zayniddin Axmedovich

Uy xo'jaliklari istemol xarajatlarini iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash 86

Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich, Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna

Kichik biznes korxonalarini moliyaviy holatini innovatsion iqtisodiyot sharoitida yaxshilash yo'llari 97

Xamdamiyev Shaxzod Ilxom o'g'li

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining O'zbekiston makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri 110

Nurmuxamedova Durdona Xislatovna

Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim sifatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish 122

Norqobilova Nargiza Abduqodirovna

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlari loyihalarini kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish 131

**KICHIK BIZNES KORXONALARI MOLIYAVIY HOLATINI
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA YAXSHILASH YO‘LLARI
ПУТИ УЛУЧШЕНИЯ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ
ПРЕДПРИЯТИЙ МАЛОГО БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ
ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ
WAYS TO IMPROVE THE FINANCIAL CONDITION OF SMALL
BUSINESS ENTERPRISES IN THE CONTEXT OF AN INNOVATIVE
ECONOMY**

Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich

Oriental universiteti dotsenti,

Iqtisod fanlari bo‘yicha falsala doktori

(PhD)

Tel.: +998(90)902-04-04

E-mail: mirzaakhmedov.n@gmail.com

Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna

Oriental universiteti dotsenti, v.b.,i.f.f.d.(PhD)

Tel.: +998997897338

E-mail: shakhnozakurbanova88@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznes korxonalarining moliyaviy holatini yaxshilashning dolzarb yo‘llari o‘rganiladi. Kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni, moliyaviy resurslarga ehtiyoj va ularni qondirishdagi muammolar tahlil qilinadi. O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar (Yevropa Ittifoqi, AQSh, Malayziya, Ruminiya) tajribasi solishtirilib, moliyaviy boshqaruvning samarali usullari – strategik moliyaviy rejalashtirish, pul oqimlarini boshqarish, iqtisodiy-matematik modellashtirish va moliyaviy tahlilning zamonaviy yondashuvlari ko‘rsatib o‘tiladi. Bank kreditlariga garov muammosi, yuqori foiz stavkalari va kredit reytingi kabi to‘siqlar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish choralari taklif etiladi. Ilmiy asoslangan moliyaviy rejalashtirish va diversifikatsiya orqali kichik biznesning moliyaviy barqarorligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *kichik biznes, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy rejalashtirish, pul oqimlari boshqaruvi, innovatsion iqtisodiyot, kreditlash muammolari, strategik boshqaruv.*

Annotation: The article examines topical ways to improve the financial condition of small business enterprises in the context of an innovative economy. It analyzes the role of small businesses in the national economy, the need for financial resources, and the challenges in meeting this need. A comparative analysis of Uzbekistan’s practices and foreign experience (European Union, USA, Malaysia,

Romania) is conducted, highlighting effective financial management methods such as strategic financial planning, cash flow management, economic-mathematical modeling, and modern approaches to financial analysis. Key barriers — collateral requirements for bank loans, high interest rates, and credit ratings — are examined, and measures to overcome them are proposed. The possibilities of enhancing the financial stability of small businesses through scientifically grounded financial planning and diversification, thereby creating new jobs and ensuring sustainable economic growth, are substantiated.

Keywords: *small business, financial stability, financial planning, cash flow management, innovative economy, lending problems, strategic management.*

Аннотация: В статье исследуются актуальные пути улучшения финансового состояния предприятий малого бизнеса в условиях инновационной экономики. Анализируется роль малого бизнеса в национальной экономике, потребность в финансовых ресурсах и проблемы их удовлетворения. Проведено сравнение опыта Узбекистана и зарубежных стран (Европейский союз, США, Малайзия, Румыния), выявлены эффективные методы финансового управления: стратегическое финансовое планирование, управление денежными потоками, экономико-математическое моделирование и современные подходы к финансовому анализу. Рассмотрены основные барьеры — требования по залогу банковских кредитов, высокие процентные ставки и кредитные рейтинги — и предложены меры по их устранению. Обоснованы возможности повышения финансовой устойчивости малого бизнеса за счёт научно обоснованного финансового планирования и диверсификации, что позволит создавать новые рабочие места и обеспечивать устойчивый экономический рост.

Ключевые слова: *малый бизнес, финансовая устойчивость, финансовое планирование, управление денежными потоками, инновационная экономика, проблемы кредитования, стратегическое управление.*

KIRISH

Kichik biznes subyektlarining moliyaviy boshqaruvi bo'yicha nazariy va amaliy yondashuvlarni solishtirish, shuningdek, xorijiy tajribani milliy amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish uchun, avvalo tashkilotlarni kichik biznes subyektlari sifatida tasniflash mezonlarini qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakatimiz qonunchiligida kichik biznes subyektlarini tasniflash mezonlari quyidagilardan iborat: mulkchilik shakli, faoliyat sohasi va xodimlar soni. Umuman olganda, xorijiy mamlakatlarda ham kichik biznes subyektlarini tasniflashda shunga o'xshash mezonlardan foydalaniladi. Asosiy tasnifi ko'rsatkichlar sifatida xodimlar soni, daromad miqdori yoki balans aktivlari hajmi

belgilanadi. Bundan tashqari, kichik korxonaning mustaqil egalik huquqiga ega bo'lishi talab etiladi, ya'ni bunday tashkilot boshqa yuridik shaxsga tegishli bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmonida mahallalarning "o'sish nuqtalari"ni aniqlash, ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatiga ixtisoslashuvi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va zarur shart-sharoitlarni yaratish kabi vazifalar bilan bir qatorda, "yalpi ichki mahsulotdagi xususiy sektor ulushini 80 foizga, eksportdagi ulushini esa 60 foizga yetkazish" maqsadlari belgilangan. Bu esa tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarning dolzarbligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari har bir iqtisodiy davrda hukumat strategik hujjatlarida o'z aksini topgan. Biroq, bu holat kichik va o'rta biznes subyektlarining rivojlanishiga to'siq bo'lmaydi. Bugungi kunda iqtisodiy siyosat muhitini rivojlantirish va ortiqcha siyosiy-boshqaruvi cheklovlarini bartaraf etish ancha pragmatik va samarali natijalar berishi mumkinligini ko'rib turibmiz.

O'zbekiston sharoitida kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash davlat tomonidan to'qqizta asosiy shaklda amalga oshiriladi. Ushbu shakllarning yagona tizimda ishlashi mamlakatimizda kichik biznes rivojiga sezilarli hissa qo'shmoqda (Shernayev A.A., ISSN 2347-4378.).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznes korxonalarining innovatsion iqtisodiyot sharoitidagi moliyaviy holatini yaxshilash masalasi so'nggi o'n yilda xorijiy va milliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritib borilmoqda.

Xorijiy tadqiqotchilar kichik biznesning moliyaviy barqarorligiga asosiy to'siqlar sifatida tashqi moliyalashtirishga cheklangan kirish imkoniyati, yuqori foiz stavkalari, qattiq garov talablari va moliyaviy boshqaruv ko'nikmalarining yetishmasligini ko'rsatadi (Kalkan & Bozkurk, 2013; Idar et al., 2012; Jia et al., 2023). Kalkan va Bozkurk (2013) Turkiya KOBlarida olib borgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, korxonalarining 75% strategik rejalashtirish vositalaridan faol foydalanishi moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liq ekanligini isbotlagan. Idar va boshq. (2012) Malayziya KOBlarini o'rganib, bozor yo'nalishi strategik moliyaviy rejalashtirish orqali vositachilik qilib, faoliyat samaradorligi va pul oqimlari bashorat qilinishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini statistik jihatdan tasdiqlagan.

Alohida tadqiqotlar kichik biznesni kreditlash muammolariga qaratilgan. Jia va boshq. (2023) an'anaviy garovga asoslangan kreditlash modellari asosan ko'chma



11.311

12.002

- 99 -

mulkka ega KOBlar uchun samarasiz ekanligini ta'kidlab, alternativ moliyalashtirish mexanizmlarini (ko'chma mulk reyestrlari, fraksion tartibli moliyalashtirish) taklif qilgan. Jahon banki va OECD hisobotlari (2020–2024) eng muvaffaqiyatli davlatlar uzoq vaqtdan buyon to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yordamdan bilvosita mexanizmlarga o'tganini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonlik olimlar ham ushbu yo'nalishda faol. Shernayev (2020, 2021) mikrodarajada soliq rejalashtirish va moliyaviy tahlilni joriy etish zarurligini, Jumaniyazov va Vohidova (2023) milliy buxgalteriya standartlari bilan IFRS o'rtasidagi farqlar tufayli moliyaviy hisobotlarning taqqoslanmasligini ta'kidlamogda.

TADQIQOT METODODLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning maqsadi – innovatsion iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston kichik biznes korxonalarining moliyaviy holatini yaxshilashning ilmiy asoslangan yo'llarini ishlab chiqish va taklif etishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan eng murakkab muammolardan biri – ko'plab kichik biznes subyektlarining investitsiya va aylanma kapital ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega emasligidir. Banklar esa kichik korxonalarining past kredit kafolatlari sababli kredit risklarini yuqori baholashga va foiz stavkalarini oshirishga majbur bo'lmoqda. Shu bilan birga, kichik korxonalarining yetarli moliyaviy mablag' ajrata olmasligi ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa kreditlash jarayonini asosan garov talablariga bog'lab qo'ymoqda (Shernayev A.A., 2021-yil, fevral:, IV-son. ISSN 2181-9750, 75–82-betlar).

Yevropa Ittifoqida kichik va o'rta korxonalar 250 nafardan ko'p bo'lmagan xodimga, yillik 50 million yevrodan oshmagan daromadga yoki 43 million yevrodan kam umumiy balans aktivlariga ega tashkilotlar sifatida belgilanadi. Muhim jihati shundaki, boshqa ko'plab davlatlardan farqli ravishda, ularning qonunchiligida aktivlar hajmiga chegaraviy limit belgilab qo'yilmagan.

AQShda esa kichik va o'rta korxonalar mikrotoifalarga bo'lish amalda mavjud emas. Kichik biznes tasnifida o'rtacha yillik daromad - 7,5 million AQSh dollari va xodimlar soni o'rtacha 500 nafar mezon sifatida qo'llaniladi. Shu bilan birga, turli iqtisodiy faoliyat sohalarida bu mezonlarga turlicha cheklovlar tatbiq etiladi. Kichik korxonalarini farqlashda asosan yillik mahsulot hajmi va daromad miqdori asos qilib olinadi.

Xorijiy adabiyotlarda ham kichik biznesning milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishidagi o'рни va uning rivojlanishidagi qiyinchiliklarga katta e'tibor



qaratiladi. Ayniqsa, inqiroz sharoitida bu muammolar yanada kuchayadi. Shu bois quyidagi choralar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Kichik biznes subyektlari moliyaviy strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonining ajralmas qismi sifatida moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirishlari lozim. Bu ularning asosiy maqsadi – bozor qiymatini maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi.

2. Iqtisodiy vaziyatni doimiy kuzatib borish, tashqi muhit xavflarini aniqlash zarur. Buning uchun nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, reyting agentliklari va milliy banklarning hisobotlari, balki asosiy kontragentlar – yetkazib beruvchilar, distribyutorlar va iste'molchilarning moliyaviy ahvoli ham nazorat qilinishi kerak.

3. Moliyaviy boshqaruvda asosiy e'tibor pul oqimlarini samarali boshqarishga qaratilishi shart.

4. Moliyaviy tahlil jarayonida oddiy moliyaviy koeffitsiyentlar bilan cheklanmasdan, chiziqli bo'lmagan omillar va ko'rsatkichlarga ham e'tibor qaratish lozim.

5. Kichik biznes korxonalari ishlab chiqarishni doimiy ravishda tahlil qilib, optimallashtirishlari kerak.

Xorijiy tadqiqotlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, kichik biznes moliyaviy boshqaruv tizimida markaziy element aynan **moliyaviy rejalashtirish** hisoblanadi.

Aksariyat xorijiy tadqiqotlar kichik biznes uchun **strategik moliyaviy rejalashtirishning dolzarbligiga** e'tibor qaratadi. Masalan, Ruminiya kichik korxonalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ularning 75 foizi turli strategik rejalashtirish vositalaridan (ayniqsa SWOT-tahlil va ssenariyli rivojlanishni rejalashtirish) foydalanadi. Strategik rejalashtirish jarayoni, odatda, strategik maqsadlarni belgilashdan boshlanadi. Shu bilan birga, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, strategik rejalashtirish vositalarining tanlovi kichik korxonalar joylashgan hududga bog'liq bo'lib, turli mamlakatlarda farq qiladi. Shimoliy Amerikada biznes rahbarlari mijozlar bilan o'zaro aloqaga, strategik rejalashtirishga va benchmarkingga ko'proq ustuvorlik beradilar (A. Kalkan, Ö.C. Bozkurk, 2013: № 99).

Malayziyalik mualliflar guruhi olib borgan tadqiqotlar esa shuni aniqladiki, strategik rejalashtirishni qo'llash va kichik biznes bozoriga yo'naltirilganlik faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kichik va o'rta biznes subyektlarining raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik rejalashtirish usullari bozor yo'nalishini rag'batlantirishi va biznes samaradorligini oshirishi lozim. Iqtisodchi olimlar fikricha, bozor yo'nalishiga e'tibor qaratish kichik biznes subyektlarining tadbirkorlik muhitini yaxshilashga yordam beradi. Yuqori raqobat sharoiti esa bozor ma'lumotlariga (mijozlar, kontragentlar, raqobatchilar haqidagi

ma'lumotlarga) tayanishni taqozo qiladi, bu esa o'z navbatida bozor sharoitidagi o'zgarishlarni kuzatib borish imkonini beradi. Demak, bozor yo'nalishi strategik rejalashtirish orqali kichik biznes faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Moliyaviy tahlilni moliyaviy boshqaruvning asosiy usullaridan biri sifatida ko'radigan bo'lsak, avvalo xorijiy va mahalliy amaliyot o'rtasida **moliyaviy hisobot yuritish** bilan bog'liq farqlar ko'zga tashlanadi. Chunki moliyaviy tahlil uchun asosiy axborot bazasi bu – buxgalteriya hisobi (Jumaniyazov I. & Vohidova R., 2023: <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6100>).

Kichik va o'rta korxonalar, shuningdek, yirik biznes subyektlari xorijda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisob yuritadi. Mamlakatimizda esa kichik biznes subyektlari faoliyatida milliy moliyaviy hisobot standartlari qo'llaniladi. Shu sababli, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda to'liq joriy etilgan deyish mumkin emas.

Hisob tizimidagi dastlabki farqlar va natijada moliyaviy ma'lumotlarning hisobotlarda turlicha aks ettirilishi sababli, mahalliy va xorijiy korxonalar moliyaviy tahlil natijalarini solishtira olmaydi. Chunki bir xil moliyaviy koeffitsiyentlarni hisoblash turlicha shakllangan ma'lumotlarga asoslanadi. Bundan tashqari, mahalliy amaliyotda moliyaviy tahlil ko'proq rentabellik, tadbirkorlik faolligi, moliyaviy barqarorlik va likvidlik, to'lov qobiliyati kabi ko'rsatkichlarga qaratilgan bo'lsa, xorijiy amaliyotda aksiyalar qiymatidagi o'zgarish, foyda, umumiy xarajatlardagi doimiy xarajatlar ulushi hamda pul oqimlari va majburiyatlar nisbati chuqur o'rganiladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, moliyaviy holatni baholash uchun yagona standartlashtirilgan ko'rsatkichlar ro'yxati na mahalliy, na xorijiy amaliyotda mavjud emas.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytish mumkinki, kichik biznes korxonalarida moliyaviy boshqaruv bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish natijasida nazariy asoslarda mahalliy olimlar bilan keskin farqlar mavjud emas. Ham mahalliy, ham xorijiy adabiyotlarda kichik biznes moliyaviy boshqaruvining asosiy usullari sifatida **moliyaviy rejalashtirish** va **moliyaviy tahlil** ko'rsatib o'tilgan.

Moliyaviy rejalashtirish, avvalo, istiqbolli rivojlanishga yo'naltirilgan bo'lib, bu strategik rejalashtirishni anglatadi. Garchi mahalliy va xorijiy mualliflarning ilmiy ishlari kichik biznes subyektlari uchun strategik moliyaviy rejalashtirishning ahamiyatini ta'kidlagan bo'lsa-da, amaliyotda ichki tashkilotlar bu borada G'arb korxonalaridan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Kichik biznes korxonalarida moliyaviy rejalashtirishni doimiy ravishda olib borish, mavjud iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda joriy va operativ ko'rsatkichlarni strategik maqsadlarga moslashtirish zarur.

Moliyaviy boshqaruv nazariyalarida natijalarni baholash va tahlil ko'rsatkichlari bo'yicha ham mahalliy, ham xorijiy adabiyotlarda kichik biznes ehtiyojlari uchun maxsus ko'rsatkichlar yoki yagona standartlashtirilgan tahlil uslublari mavjud emas. Shunga qaramay, hisoblangan asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar mahalliy va xorijiy amaliyotda foydalanishga yaroqli hisoblanadi. Shu bilan birga, G'arbda iqtisodiy-matematik modellashtirishga alohida ahamiyat berilib, u omillarning natijaga ta'sirini baholash hamda kichik biznes korxonalari faoliyati natijalarini prognoz qilishning universal vositasi sifatida ko'riladi.

Shuningdek, mamlakat iqtisodiy rivojlanishida va milliy strategik loyihalarda faol ishtirok etish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Xususan, mijozlarga xalqaro standartlarga mos bank xizmatlarini ko'rsatish orqali infratuzilma imkoniyatlarini kengaytirish, ularning biznes faoliyati (korporativ, kichik va o'rta, chakana sektor) samaradorligini oshirish uchun eng dolzarb bank vositalaridan foydalanish zarur. Bank o'z strategiyasini tanlashda respublika hukumati tomonidan belgilangan bank tizimini isloh qilish, bank tizimini yaratish va o'zgarishlarni amalga oshirishga oid vazifalarga tayangan holda harakat qiladi.

Kichik biznes subyektlarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish mezonlaridan biri, avvalo, kichik biznesni moliyalashtirish bilan bog'liq masalalarni hal qilish va mutaxassislar tomonidan taqdim etilgan takliflarni amaliyotga keng joriy etish bo'lishi kerak. Kichik va xususiy biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashga oid boshqa bir muhim mezon esa **neytral va maqsadli siyosatning joriy etilishi**dir. Muhim yo'naltirilgan siyosatlardan biri davlat korxonalari orqali moliya bozorida bevosita ishtirok etish va ayrim toifadagi kichik biznes subyektlariga selektiv himoya ko'rsatishdir. Bunday choralarga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun kredit stavkalarini pasaytirish, shuningdek, ularga qulay biznes muhitini shakllantirish kiradi (<https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>).

Shu bilan birga, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlari odatda banklar tomonidan kreditni ta'minlash uchun talab etiladigan asosiy vositalar yer yoki bino kabi garov mablag'lariga ega emas. Aksincha, ular asosan moliyalashtirishda ko'chmas mulk emas, balki ko'chma mulkka tayangan holda ish yuritadilar. Zaruriy huquqiy va institutsional himoyani ta'minlash uchun an'anaviy kafolatlar asosida alternativ kreditlash variantlarini ishlab chiqish va tadbirkorlarning biznesni boshlashi hamda boshqarishi uchun zarur resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish, shuningdek, kafolatli ro'yxatga olish vositalaridan foydalanish mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun moliyaviy to'siqlarni kamaytirish yo'llaridan biri bu – moliyaviy vositalarni yaratish, ro'yxatdan o'tkazish va amalga

oshirishni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmani tizimli ravishda mustahkamlashdir. Bunga qonunlar, qarorlar, institut kafolatlari, kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari va kredit hisobotlari kiradi.

Jahonning iqtisodiy sohadagi eng muvaffaqiyatli davlatlari xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va kichik biznesni kengaytirishga qaratilgan choralarni amalga oshirmoqda. Bunday davlatlar qatoriga Germaniya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, AQSh va Buyuk Britaniya kiradi. Shundan kelib chiqib, kelajakda O'zbekiston Respublikasining ham iqtisodiy rivojlanishda ushbu "yuqori tezlikdagi lokomotiv"ni qo'llab-quvvatlashni asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilashi qiyin emas (Jumaniyazov I., 2020:1).

Bugungi kunda mamlakatimizda biznes muhitini yanada liberallashtirish maqsadida, shaffoflikni ta'minlash va tadbirkorlik faoliyatiga oid tartib-taomillarni soddalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda deyarli birorta ham xususiy korxonalar yo'q edi. Bugungi kunda esa kichik biznes yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko'pini ishlab chiqaradi, iqtisodiy subyektlarning o'ndan to'qqizi aynan shu sohaga to'g'ri keladi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, xususiy tadbirkorlik aholining bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishda alohida o'rin tutadi: ish bilan bandlarning 78 foizi kichik biznes sohasida faoliyat yuritadi, aholining 52 foizdan ortiq daromadi tadbirkorlik faoliyatidan shakllanadi. Bu esa ushbu sohaning inson kapitali rivojlanish darajasi va sifatini oshirishdagi o'ta muhim ahamiyatidan dalolat beradi.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik doimiy ravishda o'smoqda. Ko'plab tashabbuskor insonlar noodatiy g'oyalarga ega, biroq bu orzularini amalga oshirish uchun moliyaviy manbalarni topishda muammolarga duch kelishadi. Tadbirkorlar, odatda, barcha kuchlarini kapitalni ko'paytirishga yo'naltirishni afzal ko'rishadi. Ular yangi biznes ochish uchun qarz olish jarayoniga vaqt va mablag' sarflashni istamaydilar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan bir nechta omillar mavjud:

Hujjatlarni to'g'ri yuritish – mamlakatda banklar kreditlarning katta qismini ajratadi. Ammo kichik biznes ko'pincha bank talab qiladigan zarur kafolatlarni taqdim eta olmaydi. Qarzdorning bankka yetarlicha ma'lumot bermasligi ham kredit ajratishga jiddiy to'sqinlik qiladi. Hujjatlarning yetarli emasligi bank va qarzdor o'rtasida muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli, korxonalar barcha zarur hujjatlar mavjudligini ta'minlashlari shart.

Professional rahbarlik – ba'zi tadbirkorlar barcha muammolarni mustaqil hal qilishga urinadilar. Biroq sohaning barcha jihatlarini nazorat qilishga intilish muammolarni yanada kuchaytirishi mumkin. Tadbirkor hisob-kitob va soliqqa oid

bilimlarga ega bo'lishi mumkin, lekin kredit olish bo'yicha yetarli tajribaga ega bo'lmasa, jarayonning mohiyatini to'liq tushunmasligi ehtimoli katta.

Foiz stavkalari – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga beriladigan kreditlar odatda yuqori foiz stavkalari bilan taqdim etiladi. Shu bois, ushbu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun yaxshi natijalarni ko'rsatish va isbotlash muhim hisoblanadi. Faoliyat samaradorligi oshib borgani sayin, ushbu soha haqidagi umumiy qarashlar ham ijobiy tomonga o'zgaradi.

Kredit reytingi – kreditni tasdiqlash jarayonida juda muhim rol o'ynaydi va foiz stavkalariga ta'sir qiladi. Kredit tarixidagi har qanday o'zgarish yomon kredit reytingiga olib kelishi mumkin. Past kredit reytingi esa kredit olish yo'lida jiddiy to'siqqa aylanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik investitsiyalarni oshirishda o'xshash qiyinchiliklarga duch keladi. Buning asosiy sababi – ushbu sektor yuqori xavfli deb baholanadi va ayrim banklar o'z mablag'larini bu sohaga yo'naltirishni xavfli hisoblaydi. Shu sababli ko'plab mamlakatlarda xususiy sektorga investitsiyalarni rag'batlantirish uchun turli imtiyozlar joriy etilgan. Masalan, Hindiston hukumati tijorat banklari kredit siyosatlarida kamida 40% ulushni ustuvor sektorlarga yo'naltirish talabini belgilagan bo'lsa, Bangladeshda institutsional investorlar aktivlarining 30% ini ustuvor sektorlarga kiritishi majburiy qilib belgilangan.

Ilmiy tadqiqotlar va ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida banklar tomonidan biznes subyektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni hal qilish yo'llari mavjud bo'lib, ularning O'zbekiston bank tizimida qo'llanilishi yuqori samaraga olib kelishi mumkin.

Kichik biznes korxonalari faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, diversifikatsiyaning sustligi sababli ularning pul oqimlari hisobotidagi asosiy bo'lim "operatsion faoliyat" hisoblanadi. Chunki asosiy faoliyatda rejalashtirish, tahlil va nazoratni talab qiladigan eng ko'p operatsiyalar amalga oshiriladi.

Moliyaviy rejalashtirishning amalga oshirilishi moliyaviy tahlil o'tkazish va kichik biznes korxonalari faoliyati natijalarini prognoz qilish bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun iqtisodiy faoliyat turi asosida balans aktivlarining asosiy moddalari bilan savdo tushumlari o'rtasidagi bog'liqlikni iqtisodiy-matematik model yordamida o'rganish zarur. Bu esa o'z navbatida kichik biznes korxonalari pul oqimlarini samarali boshqarishni kuchaytirish bo'yicha mos chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi (Idar R., Yusoff Y., Mahmood R., 2012: № 4, 2012, 68–75-betlar).

Pul oqimlarini boshqarish kichik biznes korxonalari uchun moliyaviy boshqaruv usullari ichida eng muhim yo'nalishlardan biridir. Pul oqimlari

korxonaning haqiqiy to'lov qobiliyatini aks ettiradi va ular yordamida butun tashkilotning moliyaviy holatini tahlil qilish, rejalashtirish hamda nazorat qilish imkoniyati yaratiladi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot foydalanuvchilarga xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlarni baholash, hisobot davrida qancha mablag' kirgani va qancha mablag' chiqqani haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, pul oqimlari hisobotida xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan operatsion, investitsion yoki moliyaviy faoliyat natijasida olingan pul oqimlari haqida aniq ma'lumot bo'lishi zarur, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, mamlakat iqtisodiy rivojlanishida va milliy strategik loyihalarda faol ishtirok etish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Xususan, mijozlarga xalqaro standartlarga mos bank xizmatlarini ko'rsatish orqali tarmoq infratuzilmasini yangilash imkoniyatlarini kengaytirish muhimdir. Shu bilan birga, har bir mijozning tarmoq xususiyatlari haqida xabardorligini oshirish va ularning biznes faoliyati – korporativ, kichik va o'rta, chakana sektor samaradorligini oshirish uchun dolzarb bank vositalaridan foydalanish talab etiladi. Bank o'z strategiyasini tanlashda Respublikamiz hukumati tomonidan belgilangan bank tizimini isloh qilish, yangi bank tizimini yaratish va islohotlarni amalga oshirishga oid vazifalarga tayanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlarning xulosalari tahlil qilinib, umumlashtirildi. Ularning fikriga ko'ra, tadbirkorlik biznesning ijtimoiy elementi bo'lib, uning rivojlanishi biznesni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadbirkorlik faoliyati biznesning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi va turli sohalarda amalga oshiriladi. Agar biznesning asosiy maqsadi mablag' topish va uni ko'paytirish bo'lsa, tadbirkorlik – bu iqtisodiy faoliyat orqali ijodkorlik bilan daromad yaratish va uni oshirishdir.

Kichik biznes korxonalarida moliyaviy boshqaruv usullari moliyaviy faoliyatni samarali olib borish, turli manbalardan kerakli hajmdagi mablag'larni shakllantirish hamda mahsulot sotish, xizmat ko'rsatish va ishlarni amalga oshirish bilan bog'liq barcha xarajatlarni hisobga olgan holda strategik maqsadlarga erishish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashda to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yordam usullariga qaraganda **bilvosita yordam usullari** ko'proq qo'llaniladi.

1. Kichik va o'rta biznes korxonalarini dunyo bo'yicha korxonalar sonining asosiy qismini tashkil etib, yangi ish o'rinlari yaratishda hamda global iqtisodiy rivojlanishga sezilarli hissa qo'shadi. Ular butun dunyo bo'yicha korxonalarining qariyb 90 foizini, bandlikning esa 50 foizdan ortig'ini ta'minlaydi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda yalpi ichki mahsulotning 40 foizigacha bo'lgan qismini kichik va o'rta biznes tashkil etadi. Jahon banki

ekspertlari hisob-kitoblariga ko'ra, 2030-yilga borib kichik va o'rta bizneslar tomonidan 600 milliondan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilishi kutilmoqda. Shu bois, ko'plab mamlakatlar ularni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda.

2. Moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish algoritmi dasturiy-maqсадli yondashuv asosida ishlab chiqildi. Unda reja ko'rsatkichlarini hisoblash usuli ham belgilangan. Iqtisodiy-matematik modellashtirish yordamida kichik biznes korxonalarining savdo tushumlari balans aktivlarining asosiy moddalariga bog'liq ekanligi aniqlandi. Bu esa keng qamrovli moliyaviy tahlilni amalga oshirish imkonini berdi.

3. Kichik biznes korxonalarini faoliyatining barqarorligini ta'minlashda muhim masalalardan biri moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etishdir. Xususan, moliyaviy resurslarni jalb qilish manbalaridan oqilona foydalanish, investitsion faollikni oshirish, moliyaviy xatarlarni samarali boshqarish hamda moliyaviy boshqaruvning zamonaviy usullarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Kichik biznes korxonalarining tadbirkorlik faoliyati ko'rsatkichlari iqtisodiy salohiyat, moliyaviy barqarorlik, raqobatbardoshlik, bozor faolligi va ijtimoiy faollik kabi mezonlar asosida tasniflanishi lozim. Bunday tasnif tadbirkorlik faoliyati nuqtayi nazaridan kichik biznes korxonalarining umumiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan ilmiy va nazariy tavsiyalarni amaliyotga joriy etish O'zbekistonda yangi ish o'rinlarini yaratish, bandlik muammosini hal qilish va kambag'allikni kamaytirish orqali aholi farovonligi, yashash darajasi va hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa 2030-yilgacha bo'lgan kambag'allikni qisqartirish strategiyasi va konsepsiyasida belgilangan vazifalarga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida. <https://lex.uz/docs/5841063>

2. M.S. Davlatboyeva, I.T. Jumaniyazov, (2023). Yashil byudjetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari. Science and Education, 4(2), 1509-1516. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5237>

3. R. Idar, Y. Yusoff, R.Mahmood (2012). The effect of market orientation as mediator to strategic planning practices and performance relationship: Evidence from Malaysian SMEs. Procedia Economics and Finance, 4, 68-75. [https://doi.org/10.1016/S2212-5671\(12\)00320-5](https://doi.org/10.1016/S2212-5671(12)00320-5)

4. X. Jia, Y. Cui, R. Patro, S. Venkatachalam, R. Kanday, J. Turayevich (2023). Application of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of

multi-agent systems. *Nonlinear Engineering*, 12(1), Article 20220335. <https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>

5. Jumaniyazov, I. (2020). Suveren jamg'armalar faoliyatida xorijiy tajriba. *International Finance and Accounting*, 2020(2), Article 1.

6. I. Jumaniyazov R. Vohidova (2023). Davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari. *Science and Education*, 4(6), 881-887. <https://opscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6100>

7. Jumaniyazov, I., & Xaydarov, A. (2023). Ijtimoiy sug'urtaning ijtimoiy himoyadagi ahamiyati. *Science and Education*, 4(1), 1033-1043. <https://opscience.uz/index.php/sciedu/article/view/4941>

8. A. Kalkan, Ö. Ç. Bozkurt, (2013). Survey on strategic planning tools and methods usage and selection in Turkish SMEs: Leaders' perceptions. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 99, 1016-1025. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.10.576>

9. Shernayev A. A. (2020) General methodological foundations of tax planning in enterprises. *International Journal of Economics, Commerce and Management*, 8(4), 357–368. <http://ijecm.co.uk/wp-content/uploads/2020/04/841.pdf>

10. Shernayev A. A. (2021) Mikroarajada soliq rejalashtirishda soliq tahlili. *Zamonaviy fan, ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari*, (4), 75-82.

11. Turayevich J. I. (2023) Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining o'rni. *Pedagogs jurnali*, 35(4), 147-157.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida. <https://lex.uz/docs/5841063> (In Uzbek)

2. M.S. Davlatboyeva, I.T. Jumaniyazov, (2023). Yashil byudjetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari. *Science and Education*, 4(2), 1509-1516. <https://opscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5237> (In Uzbek)

3. R. Idar, Y. Yusoff, R.Mahmood (2012). The effect of market orientation as mediator to strategic planning practices and performance relationship: Evidence from Malaysian SMEs. *Procedia Economics and Finance*, 4, 68-75. [https://doi.org/10.1016/S2212-5671\(12\)00320-5](https://doi.org/10.1016/S2212-5671(12)00320-5)

4. X. Jia, Y. Cui, R. Patro, S. Venkatachalam, R. Kanday, J. Turayevich (2023). Application of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of multi-agent systems. *Nonlinear Engineering*, 12(1), Article 20220335. <https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>

5. Jumaniyazov, I. (2020). Suveren jamg'armalar faoliyatida xorijiy tajriba. *International Finance and Accounting*, 2020(2), Article 1. (In Uzbek)

6. I. Jumaniyazov R. Vohidova (2023). Davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari. *Science and Education*, 4(6), 881-887. <https://opscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6100> (In Uzbek)
7. Jumaniyazov, I., & Xaydarov, A. (2023). Ijtimoiy sug'urtaning ijtimoiy himoyadagi ahamiyati. *Science and Education*, 4(1), 1033-1043. <https://opscience.uz/index.php/sciedu/article/view/4941> (In Uzbek)
8. A. Kalkan, Ö. Ç. Bozkurt, (2013). Survey on strategic planning tools and methods usage and selection in Turkish SMEs: Leaders' perceptions. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 99, 1016-1025. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.10.576>
9. Shernayev A. A. (2020) General methodological foundations of tax planning in enterprises. *International Journal of Economics, Commerce and Management*, 8(4), 357–368. <http://ijecm.co.uk/wp-content/uploads/2020/04/841.pdf>
10. Shernayev A. A. (2021) Mikrodarajada soliq rejalashtirishda soliq tahlili. *Zamonaviy fan, ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari*, (4), 75-82. (In Uzbek)
11. Turayevich J. I. (2023) Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining o'rni. *Pedagogs jurnali*, 35(4), 147-157. (In Uzbek)